



QO‘NG‘IROT URUG‘I ETIMOLOGIYASIGA OID MULOHAZALAR TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.043>

Mirzayeva Moxichexra

Qoraqalpoq davlat universiteti

O‘zbek tilshunoslik kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: mirzaevamohicehra27@gmail.com

Tel: +998975085744

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘ng‘irot urug‘ining tarixi va chinordek baquvvat ildizi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Xalq og‘zaki ijodining namunasi bo‘lgan “Qo‘ng‘irot” dostonida bu urug‘ning vujudga kelishi va tarkibiy bo‘linishi xususida bir qancha fikrlar mavjud. Buyuk toponomist B.X.Karmishevaning qo‘ng‘irotlar haqida aytgan fikrlari aynan dostonida keltirilgan ma‘lumotlarga yaqin, lekin Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida qo‘ng‘irotlarni mo‘g‘ul qavmiga mansubligi ko‘rsatiladi. Yuqoridagi ma‘lumotga yaqin fikrlar qozoq tarixchisi Tinishpaev izlanishlarida ham uchraydi. U mo‘g‘ul tarixchisi Sanen Sesen bergan ma‘lumotlarga asoslanib, qo‘ng‘irotlar Buyuk mo‘g‘ullarning *ko‘k mo‘g‘ul* qabilasiga mansub bo‘lganligini ta‘kidlaydi. M.S.Mukanovning yozishicha, “Qo‘ng‘irot etnonimining turkiy muhitda mavjudligi bu qabilaning Markaziy Osiyo va Qozog‘iston xalqlari etnogenezisida kelib chiqishi mo‘g‘ul ekanligini tasdiqlamaydi. Tadqiqotchi G.R.Galdanovanning xulosasi ham yuqoridagi fikr bilan deyarli bir xil. Uning fikricha, *xongodor* etnonimi *xungirat* so‘zi bilan bog‘liq, so‘z tarkibidagi *-rat*, *-dor* ning o‘zgargan variantidir. A.Angarxayev ham mazkur mavzuda ma‘lumot berar ekan, *xon* (*xong*) va *arad* kabi qismlardan hosil bo‘lgan *xongarad* (*xongirad*) so‘zi *xongodordan* kelib chiqqan, uning o‘zgarishga uchragan shakli deb yozadi. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, *xongirad* (*xungirad*) etnonimi buryat tilidagi *xongodor* etnonimi bilan bir xil degan fikr va xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: vaxtamg‘ali, qo‘shnamg‘ali, qonjig‘ali, oyinni, tortuvli, mang‘it, kerayit, chuyut, markit/makrit, mesit/misit, qiyot, juyrat, uyrat, arlot, bayot, boyovut, o‘ymovut, sayot, dug‘lat, esat, burqut, chiljuvut, to‘langit, xongodor.

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории рода Кунград и его могучих корнях, подобных чинару. В эпосе "Кунград," являющемся образцом устного народного творчества, существует ряд мнений о возникновении и

структурном делении этого рода. Мнения великого топонима Б.Х.Кармышевой о кунгратах близки к сведениям, приведенным в дастане, но в произведении Абулгази Бахадырхана "Шаджарайи турк" показана принадлежность кунгратов к монгольскому племени. Мысли, близкие к вышеупомянутой информации, также встречаются в исследованиях казахского историка Тиньшпаева. Основываясь на информации, предоставленной монгольским историком Санен Сесеном, он утверждает, что кунграты принадлежали к племени синих монголов Великих Моголов. Как пишет М.С.Муканов, "Существование этнонима кунграт в тюркской среде не подтверждает монгольского происхождения этого племени в этногенезе народов Центральной Азии и Казахстана. Вывод исследователя Г.Р.Галдановой практически совпадает с вышеизложенным. По его мнению, этноним хонгодор связан со словом хунгират, это измененный вариант -рат, -дор в составе слова. А.Ангархаев, предоставляя информацию по этой теме, пишет, что слово хонгарад (хонгирад), образованное от таких частей, как хан (хонг) и арад, происходит от хонгодора и является его видоизмененной формой. Исходя из мнений вышеуказанных ученых, приводятся мнения и выводы о том, что этноним хонгирад (хунгирад) идентичен бурятскому этнониму хонгодор.

Ключевые слова: вахтамгали, коштамгали, конжигали, ойинни, тортувли, мангит, кераит, чуют, маркит/макрит, мезит/мизит, кият, джуйрат, уйрат, арлот, баёт, баёвут, оймовут, саёт, дуглат, эт, буркут, чильджувут, толангит, хонгодор.

Abstract. This article provides information about the history of the Qo'ng'irot clan and its strong, sycamore-like roots. In the dastan "Kungrad," which is an example of oral folk art, there are several opinions about the emergence and structural division of this clan. The opinions of the great toponymist B.Kh.Karmysheva about the Kungrats are close to the information presented in the dastan, but in the work "Shajarayi Turk" by Abulgazi Bahadurkhan, the Kungrats are indicated as belonging to the Mongol tribe. Thoughts similar to the above information are also found in the research of the Kazakh historian Tinishpaev. Based on information provided by the Mongol historian Sanen Sesen, he asserts that the Kungrats belonged to the Blue Mongol tribe of the Great Mongols. According to M.S. Mukanov, "The existence of the Qo'ng'irot ethnonym in the Turkic environment does not confirm the Mongol origin of this tribe in the ethnogenesis of the peoples of Central Asia and Kazakhstan. The conclusion of the researcher G.R. Galdanova is almost identical to the above opinion. In his opinion, the ethnonym xongodor is related to the word hongirat, which is a modified variant of the words -rat, -dor. A. Angarkhaev, also providing information on this topic, writes that the word khongarad (khongirad), formed from parts such as khan (khon) and arad, originates from khongodor and is its modified form. Based on the opinions of the above-mentioned scholars, the opinion and conclusions are drawn that the ethnonym khongirad (khungirad) is the same as the ethnonym khongodor in the Buryat language.

Keywords: vaxtamg‘ali, qo‘shnamg‘ali, qonjig‘ali, oyinni, tortuvli, mang‘it, kerayit, chuyut, markit/makrit, mesit/misit, qiyot, juyrat, uyrat, arlot, bayot, boyovut, oymovut, sayot, dug‘lat, esat, burqut, chiljuvut, to‘langit, xongodor.

KIRISH.Qo‘ng‘irot urug‘ining tarkibi, ularning kelib chiqishi va qaysi hududlarda yashaganligi haqida turlicha qarashlar, turlicha ma‘lumotlar mavjud. O‘rta asrlarda Yevro-Osiyoning keng hududlarida shakllangan, keyinchalik genetik jihatdan ko‘plab zamonaviy xalqlarning bir qismiga aylangan *qo‘ng‘irotlar* deb nomlangan jamoaning kelib chiqishi va tarixi muammolari juda murakkab va hali ham eng munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu ko‘p jihatdan o‘rta asr etnik tarixini o‘rganishning ilmiy muammolari: manbalar bazasining yetarli emasligi, nazariy asoslarning zaif rivojlanishi bilan bog‘liq[1;131].

Qo‘ng‘irotlarning tarixi va sharhi ko‘p. Qo‘ng‘irot urug‘ining ildizi chinordek baquvvat. Baxshilari kuylab kelgan dostonlari, Alpomish-u Barchinoylari umrboqiydir. Sarvari olam qo‘ng‘irotning beshta urug‘iga beshta hislatni ko‘proq bergan deyishadi. Unga ko‘ra: *vaxtamg‘aliga* shajaralik, *qo‘shnamg‘aliga* sarkardalik, *qonjig‘aliga* boylik, *oyinniga* mullalik, *tortuvliga* botirlik berilgan emish[2;136].

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri “Qo‘ng‘irot” dostoniga[3;38] e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda tarixiy manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarga ayrim zid o‘rinlarni uchratishimiz mumkin. Dostonda qo‘ng‘irot urug‘ining vujudga kelishi va tarkibiy bo‘linishi xususida bir qancha fikrlar mavjud. Unda aytilishicha, o‘zbeklarning to‘qson ikki urug‘iga asos solgan O‘zbekliboyning katta o‘g‘li *Mamatqulboy* bo‘lib uni G‘udraybiy (Gudraybiy shakli ham mavjud) deb ham atashgan. *Mamatqulboy* Gulzoda ismli katta xotinidan *Qilichboy*, *O‘roqboy*, *Cho‘tboy* nomli uch o‘g‘il, kichik xotini *Kumushbibidan Aliqulbekjon*, *Haydarqulbekjon*, *Joniqulbekjon* (manbalarda *Jonimqulbekjon* deb yuritilgan o‘rinlar ham bor), *Mullamurodbek* nomli to‘rt o‘g‘il ko‘radi. *Yillar o‘tishi*, *farzandlarning* voyaga yetishi bilan katta xotini va uch o‘g‘li alohida mol-mulk talab qilib, otasiga qarshilik qilib boshlaydilar. Shunda *Mamatqulboy* xotini va to‘ng‘ich o‘g‘lini Olatovga (mol boqish uchun yaylov bo‘lgan) to‘rt otar mol berib jo‘natadi. O‘zi Buxoroga ko‘chadi. Buxoroda Himmat degan qabila sardori bo‘lib, *Mamatqulboy* va u bilan kelganlarga joy beradi. Bir poyga o‘tkazishni aytib, mehmonlarni ot choptirishga taklif etadi. *Mamatqulboy* qo‘ng‘ir tusli otni minib, Himmat sardorning chavandozlari bilan ot choptiradi. Yig‘ilganlar “*Qo‘ng‘ir otlari chavandoz g‘olib bo‘ldi*”, deb shovqin ko‘taradilar. *Shu g‘alabasi sharafiga* Himmat sardor *Mamatqulboyga* Suluvbeka degan qizni beradi (sovg‘a, tortiq qiladi). Ular bir o‘g‘il ko‘radi. Onasi tortiq qilingani uchun nomini *Tortuvliboy* qo‘yadi.

Yerlik aholi *Mamatqulboy* qo‘ng‘ir (qizil) rangli ot minib yurgani uchun u bilan birga kelganlarni *qo‘ng‘ir otlilar*, o‘zini *Qo‘ng‘irotli bobo*, *Qo‘ng‘irot bobo* deb atab boshlaydilar.

Mamatqulboy yangi elda joylashib, o‘zi bilan borganlarga bosh bo‘lib, yaxshi yashab yurgan bir paytda Buxoroga yov bostirib keladi. Himmatbek *Qo‘ng‘irot* ota va o‘g‘illaridan yordam so‘raydi. *Mamatqulboy* o‘zi jangga kirmasdan, o‘g‘illarini yordamga jo‘natadi.

Himmatbek jangda g‘alaba qozonadi va Qo‘ng‘irot boboning g‘alabaga ko‘maklashgan o‘g‘illarini taqdirlaydi. Shunda katta o‘g‘li Aliqulbekjonga qo‘sh tamg‘a (muhr) bosilgan yorliq va soniga qo‘sh tamg‘a bosilgan ot tortiq qildi. Ikkinchi o‘g‘li Joniqulbekjonga qahramonligi ozligi uchun bir tamg‘ali yorliq va bir tamg‘a bosilgan ot sovg‘a qiladi. Uchinchi o‘g‘il Haydarqulbekjonga Himmatbek o‘zining xonjig‘asi (xonlik belgisi)ni kiydiradi. To‘rtinchi o‘g‘il Murodboy bilan kenja o‘g‘li Tortuvlibekka bittadan ot sovg‘a qiladi.

Qo‘ng‘irot ota piri Avliyoxondan o‘g‘illarining keyingi avlodi shajarasini so‘raydi. Pir shunday tafsiflab beradi: Aliqulbekjonga qo‘sh tamg‘ali ot tortiq qilibdi, endi uning ullari *Qo‘sh tamg‘ali* shoxiga, Joniqulbekjonga vaqtincha tamg‘a berilgan bo‘lsa, uning avlodi *Vaqtamg‘ali* shoxiga, xon jig‘asini kiydirgani uchun Haydarqulbekjonning avlodi *Xonjig‘ali* shoxiga. Mulla Murodboy biroz norozi bo‘lib, oynigan bo‘lsa, u *Oyinli* shoxiga ajraladi. Tortuvlibek esa o‘zini tortib yuraversin”, - deb karomat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

B.X.Karmishevaning yozishicha, *qo‘ng‘irotlar, yuzlar (juz), laqaylar, semizlar, kesamirlar, qatag‘onlar, do‘rmonlar* kabi urug‘lar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro sharqida mavjud bo‘lgan va ular Dashti Qipchoqdan kelib chiqqan[4;86]. Shuningdek, olimning ma‘lumotiga ko‘ra, *qo‘ng‘irot* urug‘ining bosh bobosi *Qo‘ng‘irot ota* yoki *Qo‘ng‘ir biy* deb atalgan. Boboning katta (birinchi) xotinidan Vaxtamg‘ali, Qo‘sh tamg‘ali, Qonjig‘ali va Ayinni (*Ayinli – Oyinli*) deb nomlangan 4 ta farzand bo‘lgan. Bular qo‘ng‘irot urug‘ining asosiy tarmoqlarida bosh ota hisoblanadi. Beshinchisi Tortuvli bo‘lib, ular Qo‘ng‘irot otaga tortiq etilgan kichik xotinidan tug‘ilgan farzandi va uning avlodlari hisoblanadi[4;87]. Boshqa bir ma‘lumotda “Tortuvli” nomi ayol kishining tortiq etilgani bilan emas, keksayib borayotgan Qo‘ng‘ir biyga ikkinchi xotini tomonidan tortiq etilgan o‘g‘il farzand nomi bilan bog‘lanadi. O‘z o‘rnida bu asosiy bo‘g‘in kichik shoxobchalarga bo‘linib ketadi. Bu urug‘lar nomlarini lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ularning onomasiologik jihatiga e‘tibor qaratdik.

Hofiz Tanish al-Buxoriy *qo‘ng‘irotlarning* kelib chiqishi haqida quyidagilarni yozadi: “Bu jamoa ham Arkanakun[5;168] ga borgan ikki kishining naslidandir. Chunonchi, (ular to‘g‘risida) aytadilar va hikoya qiladilarki, bu qo‘ng‘irot qavmi bulardan avval, ular bilan kengashmasdanoq (Arkanakundan) tezlik bilan chiqib ketganlar va shunday qilib, boshqa qavmlarning otashdonlarini oyoqosti qilganlar. Mo‘g‘ullarning e‘tiqodi shulki, qo‘ng‘irotlarda ko‘p sodir bo‘lib turadigan oyoq og‘riqlari(ning) sababi ularning o‘sha xatti-harakatlari tufaylidirki, ularning oyoqlari o‘sha zulmning nashtariga tekkan. Qo‘ng‘irot qavmida juda kup (boshqa) qavmlar (va) tarmoqlar (tarmoq-tarmoq bo‘lib) ajrab chiqqan va (ularning) har biri o‘ziga xos nom va muayyan (bir) laqab bilan farq qilgan[6;43].

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida mazkur urug‘ haqida shunday ma‘lumotlar keltirilgan: *Qayon naslindin bir kishi bor erdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi. Avvalg‘ining oti Cho‘rliq mergan, ikkinchisining oti Qubayshira, uchinchisining oti Tusbuday. Cho‘rliq anday otar erdi o‘qni kim, bir kun inisi Qubayshira bilan urushti. Ikkisi*

ham ot ustinda erdi. Yoyin olib o‘qin kezladi. Qubayshira engashib boshini otning bo‘ynig‘a panoh qildi. Bir zamon turg‘andin so‘ng, boshini ko‘tardi. Cho‘rliq inisini ayadi. Taqi ko‘nglindin aytdi: “Muni andag‘ otayin qo‘rqsun, ammo zarar topmasun”. Quloqinda ulug‘ xalqasi bor erdi. Ani qasd qilib otdi. O‘q xalqaning ichindin o‘tub ketdi. Cho‘rliq merganning bir o‘g‘li bor erdi. Qo‘nqirat otli. Barcha Qo‘nqirat eli aning nasli tururlar”[5;38].

Ma‘lum bo‘lmoqdaki, tarixiy manba qo‘ng‘irotlarni mo‘g‘ul qavmiga mansubligini ko‘rsatmoqda. Mo‘g‘ullarning qayon nasli Elxonning Qayon nomli o‘g‘lidan tarqagan. Elxon O‘g‘uzxonning oltinchi avlodi hisoblanadi. Qayon naslining davomchilari qiyotlar deb yuritilgan.

Qo‘ng‘irotlarning mo‘g‘ullar bilan aloqadorlikni ko‘rsatuvchi asos sifatida olimlar yana bir asosni ko‘rsatadilar: Chingizxonning onasi *Ulun eke* qo‘ng‘irot qizi edi. Otasi *Yasukay* botir Chingizni onasi tomondan qo‘ng‘irot qabilasidan bo‘lgan qizga nikohlab bergan. Bu birinchi xotinidan Chingizning o‘g‘illari *Jo‘ji*, *Chag‘atoy*, *Ogedey* va *Tuluy* edi[7;375].

Qo‘ng‘irotlar ayni qayon naslidan bo‘lmish Cho‘rliq merganning o‘g‘lidir. Aynan qo‘ng‘irotlar va qiyotlarning mo‘g‘ullar davrida mavqeyi baland, qo‘shinga sarkarda, mohir mergan va jangchi bo‘lganligi borasida Alisher Navoiyning quyidagi g‘azali ham guvohlik beradi:

*Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,
Menga lo‘li bila hindu anga qo‘ng‘irotu qiyot.*

Yoki:

*Ey Navoiy, chu gadosen, senu bir lo‘livash,
Shohga mirzoyu mirak, xonga qiyotu qo‘ng‘irot. (“Navodur ush shabob”)*

Yuqoridagi ma‘lumotga yaqin fikrlar qozoq tarixchisi Tinishpaev izlanishlarida ham uchraydi. U mo‘g‘ul tarixchisi Sanen Sesen bergan ma‘lumotlarga asoslanib, qo‘ng‘irotlar Buyuk mo‘g‘ullarning *ko‘k mo‘g‘ul* qabilasiga mansub bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Qozoq sovet ensiklopediyasida qo‘ng‘irotlar qadimgi *qiyot (kiyon)* qabilasidan yoki *qiyotlar* bilan bir ildizga ega bo‘lgan *ol-xonut* va *honhirot* nasllaridan kelib chiqqanligi, ular avvallari mo‘g‘ul xalqi tarkibiga kirganligi va *Ergenekon*dan kelib chiqqanligi qayd etilgan. Manbalarda aytilishicha, qo‘ng‘irotlar ikki yirik bo‘linmaga bo‘lingan. Fridrix Vilgelm Radloff bu ikki birlikni “*osmonning olti ajdodining o‘g‘illari*” va “*osmonning olti ajdodining qushlari*” deb nomladi. Qozoq nasabnomalarida ham qo‘ng‘irotlar ikki guruhga bo‘linadi: “*Olti ajdod osmon o‘g‘illari*” va “*Yeti burchakli osmon o‘g‘illari*” va ulardan *o‘n uch* urug‘ vujudga kelgan. *Ko‘ktenshedan* tug‘ilgan olti ajdod *Sangili*, *Suyumbay*, *Suttimboy*, *Akkoshkar*, *Amantay* sifatida ko‘rsatiladi[7;376].

Ba‘zi tadqiqotchilar bu etnonimning kelib chiqishi mo‘g‘ullarga borib taqalishiga asoslar yetarli emas, deb hisoblaydilar. Xususan, M.S.Mukanovning yozishicha, “Qo‘ng‘irot etnonimining turkiy muhitda mavjudligi bu qabilaning Markaziy Osiyo va Qozog‘iston xalqlari etnogenezisida kelib chiqishi mo‘g‘ul ekanligini tasdiqlamaydi. Tilga olingan

xalqlarning shakllanishida mo‘g‘ul -qo‘ng‘irot elementlari uchrasa-da, biroq ularning asosiy tarkibini turkiy qavmlar tashkil qilgan. Bu yerda qavmlar, shuningdek, qabilaviy guruhlarining Dashti Qipchoqda hukmron bo‘lgan Jo‘ji sulolasi vakillaridan biri – *qo‘ng‘irot* etnonimi bilan atala boshlagan yangi etno-ijtimoiy tashkilot (EIT)ga birlashganini ko‘rish mumkin. *Qo‘ng‘irot* etnonimining Dashti Qipchoq qabilaviy guruhlariga tarqalishi mo‘g‘ul jamiyatida mavjud bo‘lgan “*nökör*”, “*nököd*” (nuker) jamoasi bilan bog‘liq. Nuker – bu mo‘g‘ul jamiyatida muhim o‘ringa ega bo‘lgan *noyon*, *baatura*, *mergen* kabi feodal sinf vakillaridan iborat jamoa”[8;53]. Ammo ko‘plab tarixiy ma‘lumotlarda mazkur etnonimning mo‘g‘ullarning mahalliy Klan xalqining Darlekin bo‘limiga kirishi va ilk bor 1129-yilda “Mo‘g‘ullarning yashirin tarixi” asarining 61-bandida “*ongirad*” shaklida uchrashi qayd etiladi. Mo‘g‘ul tarixchilarining fikriga ko‘ra, ularning nomi “*xun*” – *oqqush* va “*ard*” – *xalq*, *qabila* (*oqqush qabilasi*) so‘zlaridan kelib chiqqan. Chunki oqqush mo‘g‘ul xalqlarining, xususan, buryatlarning totemlaridan (ramz) biri hisoblangan.

Tadqiqotchi G.R.Galdanovaning xulosasi ham yuqoridagi fikr bilan deyarli bir xil. Uning fikricha, *xongodor* etnonimi *xungirat* so‘zi bilan bog‘liq, so‘z tarkibidagi -*rat*, -*dor* ning o‘zgargan variantidir[9;83-93]. A.Angarxayev ham mazkur mavzuda ma‘lumot berar ekan, *xon* (*xong*) va *arad* kabi qismlardan hosil bo‘lgan *xongarad* (*xongirad*) so‘zi *xongodordan* kelib chiqqan, uning o‘zgarishga uchragan shakli deb yozadi[10;37]. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, *xongirad* (*xungirad*) etnonimi buryat tilidagi *xongodor* etnonimi bilan bir xil deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

P.Potapov ham *qo‘ng‘irot* etnonimini mo‘g‘ulcha so‘z ekanligini ta’kidlab, ularning shakllanish vaqti Chingizxon davriga borib taqaladi deb hisoblaydi[11;38-39].

A.Ochirning fikricha, esa *xongirad*, *xonxirad*, *xonxereed* etnonimi *kermet* (*xereed*, *xereyd*) – *qarg‘a* totemi nomidan kelib chiqqan. Chunki mo‘g‘ullar *qarg‘aning* yirik turlaridan birini *xon keree* deb atashadi[12;286]. Shu qarashga bir qator o‘zbek tilshunos va tarixchi olimlari ham qo‘shilganlar. Xususan, X.Doniyorov shunday yozadi: “Ba’zi ma‘lumotlarga qaraganda, bu so‘z aslida mo‘g‘ulcha bo‘lib, “*qora qarg‘a*” ma’nosini bildiradi”[13;86].

Folklorshunos olim Hodi Zarifovning *qo‘ng‘irot etnonimiga bergan ta’rifi* biroz *boshqacharoq bo‘lib*, quyidagicha izohlangan: “Tarixchilar va etnograflar *qo‘ng‘irot* bu mo‘g‘ul qabilalaridan birining nomi deb kelganlar. Ammo “Alpomish” eposidagi “*qo‘ng‘irot*” termini mo‘g‘ul qabilasi *qo‘ng‘irotga* hech aloqasi bo‘lmagan. Bu termin uch so‘zdan tashkil topgan. Birinchi so‘z “*qo‘n*” – *qo‘y* so‘zining qadimiy shakli, ayni vaqtda *qabila* nomi. Ikkinchi so‘z “*g‘ir*” – *ko‘k*, *chopag‘on*, uchinchisi ot ma’nosidadir. *Qabila* nomi “*qo‘ng‘ir ot*” so‘zidan olingan. Terminning ikkinchi qismi “*g‘ir*” tez ma’nosini, *kulrang*, *oq-qora*, *ko‘kish*, *ko‘k* ma’nolarini ham anglatadi. “*Ot*” bilan qo‘shilib, “*chopqir ot*”, *chopag‘on* ma’nolarini beradi. Dostonlardagi “*G‘irot*” ham harakat, tezlik, ham rang-tusni bildiradi”[14;28-29]. Olimning xulosasiga asoslanadigan bo‘lsak, unda *qo‘ng‘irot* atamasi, xalq orasidagi *qo‘ng‘ir* (qizil, qizg‘ish) *rangli* ot ma’nosini emas, balki *chopag‘on* (ildam) ot ma’nosini anglatadi, *degan mazmun yuzga chiqadi*.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tarixchi olim S.Tursunovning ayni mavzuga doir ma'lumotlari ham T.Nafasovning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlaydi: “*Qo‘ng‘irot* – etnonim. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibidagi qabila. Mo‘g‘ulcha *xongirat*. *Qo‘ng‘ir* so‘zining rang bildiruvchi “qo‘ng‘ir” so‘ziga aloqasi yo‘q. *Qo‘ng‘ir* mo‘g‘ulcha *xun kerey* (“qora qarg‘a”, “qarg‘a kishi”) so‘zlaridan tashkil topgan. So‘z oxiridagi -t affiksi kishilar jamligini, kollektiv, jamoani bildirgan: *xun+kerey+t > xunkerey > xunkirat > qo‘ngirat > qo‘ng‘irat*. *Kerey/qarg‘a* – qadimgi turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida totem, muqaddas jonzot sanalgan. Shu tariqa urug‘, qabila nomi yuzaga kelgan[15;110], deb munosabat bildirgan. Ma'lumot uchun shuni ta'kidlash mumkinki, bir guruh o‘zbek urug‘lari nomlari tarkibida -t/-at/-ot/-ut/-it qo‘shimchasi mavjud: *mang‘it, kerayit, chuyut, markit/makrit, mesit/misit, qo‘ng‘irot, qiyot, juyrat, uyrat, arlot, bayot, boyovut, o‘ymovut, sayot, dug‘lat, esat, burqut, chiljuvut, to‘langit*. Bu turga daxldor etnonimlar boshqa turkiy xalqlarga ham xos: *boshqird, uyrot (oltoy), teet (qirg‘iz), tang‘ut (qozoq)*[16;40]. Bularning hammasi ham jamlik ma'nosini anglatmaydi.

I.Umarovning bu boradagi xulosalari biroz boshqacharoq bo‘lib, yuqoridagi ko‘pgina fikrlarni inkor etadi. Bu borada tarixchining fikri shunday: “*qo‘ng‘irot* so‘zining etimologiyasi aniqlanmagan. Bir fikrga ko‘ra, u “qoraqarg‘a”, bopshqa fikrga ko‘ra, “*qo‘ng‘ir*” va “*ot*” so‘zlaridan hosil bo‘lgan deyiladi. Tarixiy dalillar har ikki fikrni inkor etadi. *Qo‘ng‘irot* so‘zi aslida *xuni-xurr-yut* so‘zlaridan tashkil topib, oldingi ikki so‘z qabilalar (ya’ni, *xunn(xion)*lar bilan *xurriylar*) nomini, *yut* esa ham ko‘plik, ham harbiy tuzilma ma'nosida kelib, *xunn* va *xurrlarning* harbiy ittifoqi degan ma'noni anglatadi. Ittifoq nomi etnik nomga aylanib, *xunxurot* – *xunxirot* – *qo‘ng‘irot* tarzida ifodalanadigan bo‘ldi[17;13].

Mahkamboy Umarov “*Qo‘ng‘irot* so‘zi ikki qismdan: *xun* va *qirot* so‘zlaridan iborat bo‘lib, “qirli, adirli joyning odami” degan ma'noni anglatadi” deb hisoblasa, Norali Norboyev “*qo‘ng‘irot* “*buyuk shahar*” ma'nosini anglatadi, - deb ma'lumot bergan va: “*Kunik*” so‘zining ma'nosi “*ulug‘*” demakdir. *Qo‘ng‘irot* so‘zi balki “*qo‘nqirot*” bo‘lishi mumkin, chunki “*gard*” – bu shahar. *G* harfi kiril alfavitida yo‘q bo‘lganligi uchun buzilib “*girat*” so‘zi bilan almashtirilgandir”[18;19] tarzida fikr bildirgan.

O‘rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlarning har biri haqiqatga yaqin. Albatta, ular qaysidir manbaga asoslangan. Lekin fikrlar mazmunining xilma-xilligi bu etnonim etimologiyasida yakdil yakuniy qarorning mavjud emasligini ko‘rsatadi. Bizning xulosamizga ko‘ra, *qo‘ng‘irot* etnonimi *qarg‘a* semasi bilan bog‘liq. Chunki qadimgi urug‘ va qabilalar o‘z ramzi – simvollariga ega bo‘lgan. Qabilalar o‘z madaniy va ma'naviy qarashlaridan kelib chiqib, asosan, qushlar va hayvonlarni qabila yoki urug‘ ramzi sifatida tanlashgan. Qadimgi mo‘g‘ul madaniyatida qora qarg‘a *bardoshli, nigohi o‘tkir, kuchli qush* sifatida baholangan. Shuning uchun mazkur qush totem sifatida tanlangan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Mo‘g‘ul tilida *qarg‘a kheree* (хэпээ) ekanligini inobatga olib, qo‘ng‘irot etnonimiga asos bo‘lgan “*kermet*”, “*kerey*”, “*xeret*” leksemalari “*kheree*”ning fonetik o‘zgarishga uchragan variantlari deb hisoblash mumkin.

XULOSA

Umuman, bizning xulosamizga ko‘ra, mo‘g‘ul qabilalari orasida genetik jihatdan turkiy qavmlarga mansub jamoalar, birlashmalar mavjud bo‘lgan. Mazkur qavmlar mo‘g‘ullar bilan aralashib, “mo‘g‘ul qabilalari” nomini olgan va etnik nom mo‘g‘ul komponentlari asosida shakllangan. Shuning uchun, turkiylarga xos bo‘lsa-da, ko‘plab etnik nomlar mo‘g‘ulcha shaklini saqlab qolgan. Rashid ad Din “Jome-at-tavorix” asarida “ushbu qabilalar mo‘g‘ul emas, balki mo‘g‘ul deb nomlangan turkiy qabilalar edi”[19;123] deb bergan ma’lumotlari ham bizning fikrlarimizni asoslaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзаев Ж. К изучению истории кунгратов Южного Узбекистана. Collected articles of the third central Asian anthropological conference. – Bishkek, 2010.
2. Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Muharrir, 2019.
3. Раҳимов Қ. Қўнғирот. Қарши: Насаф, 2006.
4. Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: Наука 1976.
5. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: “Чўлпон”1992.
6. Абдулланом. Шарафномайи шоҳий. 1- китоб, Тошкент, 1999.
7. Doğan, O. Kungrat // Islom ensiklopediyasi / bosh muharrir H. Karaman. – Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, 2002. 26-jild.
8. Муқанов М.С. Конраты. Известия А.Н.Каз.ССР. сер общест наук. 1991. №3.
9. Галданова Г.Р. Хонгодоры – хунгирады? // Монголо-бурятские этнонимы. – Улан-Удэ, 1996.
10. Ангархаев А. Истоки. – Улан-Удэ, 1999.
11. Потапов Л.П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков “*кунград*”. “Научная мысль” №1, Ташкент-Самарканд, 1930.
12. Очир А. Монгольские этнонимы: вопросы происхождения и этнического состава монгольских народов/ д.и.н. Бакаева Э.П., д.и.н. Орлова К.В. – Элиста: Кигиран, 2016.
13. Донияров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.
14. Зарифов Ҳ.Т. “Алпомиш” достонининг асосий мотивлари // “Алпомиш”. – Тошкент: Фан. 1999.
15. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент, 2016.
16. Усмонов М., Нормаматов М. Ўзбекистон ҳудудидаги қўнғирот уруғи этник тарихи муаммолари// Uzbek Scholar Journal Volume-13. 2023 й.
17. Умаров И. Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўнғиротлар) 1- китоб. Қарши: “Насаф”, 2003.

18. Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. – Тошкент, 1997 й.

19. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – Москва: “Ленинград”, 1952